

## O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGI VA SHAFFOFLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

*Buxoro davlat pedagogika instituti  
ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi  
**Rajabov San'atjon Sunnatovich**  
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich  
talabasi **Hamidov Begzod Toshpo'lot o'g'li**  
[bekzodhomidov454@gmail.com](mailto:bekzodhomidov454@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada davlat siyosati va boshqaruvi sohasida bugungi kunda kuzatilayotgan asosiy zamonaviy tendensiyalari shuningdek, globalizatsiya, raqamli transformatsiya, institutsional islohotlar hamda fuqarolik jamiyati faolligining ortishi natijasida davlat boshqaruv tizimining shakl va mazmuni jadal o'zgarib borayotganligi tahlil qilinadi. Hozirgi vaqtda elektron hukumat va raqamli boshqaruv, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarining kuchayishi, mahalliy boshqaruvni rivojlantirish, innovatsion siyosiy-texnologik yondashuvlar, fuqarolar ishtirokiga asoslangan elektron demokratiya, xalqaro hamkorlik va global standartlarga moslashuv kabi tendensiyalarning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonlarning afzalliklari, mavjud institutsional va texnologik cheklovlari hamda amaliy ta'siri tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat siyosati, davlat boshqaruvi, zamonaviy tendensiyalar, raqamli transformatsiya, shaffoflik, hisobdorlik, globalizatsiya, innovatsion boshqaruv, institutsional islohotlar, fuqarolik jamiyati.

XXI asrning ikkinchi choragida davlat siyosati va boshqaruvi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Globalizatsiya, texnologik modernizatsiya, raqamli iqtisodiyotning o'sishi, fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi, ekologik va ijtimoiy barqarorlik masalalarining keskinlashuvi — bularning barchasi davlat boshqaruvi tizimidan yangicha yondashuvni talab etmoqda. Davlat endi faqat boshqaruvchi organ sifatida emas, balki innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi, fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi, hamkorlikni rivojlantiruvchi va shaffof tizim sifatida maydonga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.<sup>37</sup>” – deya barchaning e'tiborini qaratib, davlat boshqaruvida raqamlashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishga chaqirgan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda raqamli texnologiyalar davlat sektorining deyarli barcha

<sup>37</sup> <https://president.uz/en/lists/view/3324>

jarayonlariga chuqur kirib bormoqda. Ma'muriy boshqaruv, davlat xizmatlari, axborot resurslarini boshqarish, statistika, soliqqa tortish, iqtisodiy monitoring kabi sohalarda raqamlashtirish natijasida tezlik, aniqlik va qulaylik oshmoqda.

Davlat boshqaruvida shaffoflik, ochiqlik va hisobdorlik shaffof boshqaruv - samaradorlikning asosi davlat faoliyati ochiqligi korrupsiyani kamaytiradi, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Ochiq ma'lumotlar (Open Data) ekotizimi ko'plab davlatlar ochiq ma'lumotlar portalini joriy etib, bu jarayonlar jurnalistlar, ilmiy tadqiqotchilar va fuqarolar uchun keng ma'lumot maydonini yaratadi; davlat faoliyatini monitoring qilish imkonini oshiradi; innovatsion texnologiyalar va startaplarga turtki beradi<sup>38</sup>. Davlat siyosati va boshqaruvida kuzatilayotgan zamonaviy trendlar nafaqat ijtimoiy-siyosiy sohalarga, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, bozor institutlarini rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash kabi yo'nalishlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. "Raqamlashtirish" so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi.<sup>39</sup> Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – trakzaksion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu – transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng ahamiyatlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib boradi.

<sup>38</sup> Raqamli boshqaruv tamoyillari (Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tavsiyalar): <https://publicadministration.un.org>

<sup>39</sup> Yunusova M.S. Elektron hukumat va davlat boshqaruvini raqamlashtirish. Davlat boshqaruvi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent."Dimal" nashriyoti, 2025-y. 88 b.

Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi. Raqamli iqtisodiyot ko'z o'ngimizda yaralmoqda. Hozir butun dunyo bo'ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT instrumentlardan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo'lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug'dirmoqda. Prognozlarga ko'ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», additiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Raqamli to'lov tizimlari ham shiddat bilan rivojlanmoqda. 2024-yilda onlayn to'lovlarning ulushi umumiy hisob-kitob operatsiyalarining 70 foizini tashkil qildi. Bu ham davlat xizmatlaridan foydalanishda shaffoflik va qulaylikni ta'minlayapti Dunyo taraqqiyotining bugungi bosqichida raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvini isloh qilishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari orqali samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta'minlash va fuqarolar uchun qulay sharoit yaratish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. O'zbekiston ham bu yo'nalishda so'nggi yillarda sezilarli qadamlar tashladi. Davlat rahbari tomonidan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilinib, mamlakatda raqamli transformatsiya jarayoni tubdan yangi bosqichga ko'tarildi.<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni yaratishda davlat boshqaruvining samaradorligi va shaffofligi hal qiluvchi omil hisoblanadi". Shu sababli raqamli transformatsiya nafaqat islohotlar, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi kuchga aylanmoqda. So'nggi besh yil ichida mamlakatimizda elektron davlat xizmatlarining turlari 50 tadan 400 dan ortiqqa yetdi. My.gov.uz orqali taqdim etilayotgan xizmatlar soni yiliga kamida 20-25 foizga oshib bormoqda. Masalan, 2022-yilda 11 millionga yaqin fuqaro elektron xizmatlardan foydalangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 18 milliondan oshib ketdi. Bu raqamlar aholining raqamli xizmatlarga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi. Eng katta yutuqlardan biri - davlat idoralari faoliyatida elektron hujjat aylanishi joriy etilishi bo'ldi. Bugungi kunda barcha vazirlik va idoralar axborot tizimlari integratsiya qilingan holda ishlayapti. Bu nafaqat ish yuritish samaradorligini oshirdi, balki qog'ozbozlik va byurokratik to'siqlarni kamaytirdi. Xususan, "MyGov", "Soliq.uz", "E-auksion" kabi platformalar davlat va jamiyat o'rtasida yangi o'zaro aloqani shakllantirdi. Davlat statistika qo'mitasi

<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5- oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi PF-6079-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



ma'lumotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar ulushi 2020-yilda 35% bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 70% ga yetdi. Elektron xizmatlarning rivojlanishi aholining kundalik hayotini yengillashtirdi. Masalan, oldin pasport olish yoki kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun bir necha marta idoralarga borish talab etilgan bo'lsa, bugun bu jarayonlarning ko'pchiligini onlayn amalga oshirish mumkin. Tadbirkorlar uchun esa litsenziya va ruxsatnomalarni olish muddati bir necha oydan bir necha kungacha qisqardi. Raqamli to'lov tizimlari ham shiddat bilan rivojlanmoqda. 2024-yilda onlayn to'lovlarning ulushi umumiy hisob-kitob operatsiyalarining 70 foizini tashkil qildi. Bu ham davlat xizmatlaridan foydalanishda shaffoflik va qulaylikni ta'minlayapti. O'zbekiston tajribasini xalqaro amaliyot bilan taqqoslasak, tubdan farq va umumiy jihatlarni ko'rish mumkin. Masalan, Estoniyada barcha davlat xizmatlarining 99 foizi elektron shaklda taqdim etiladi. Janubiy Koreya elektron hukumat tizimi orqali fuqarolarning davlat idoralariga murojaat vaqti 70 foizga qisqarganini qayd etgan. Singapurda esa raqamli davlat platformalari orqali barcha davlat xizmatlari "bir darcha" asosida taqdim etiladi. Buning natijasida YAIM 2–3% ga o'sgani qayd etilgan. O'zbekiston bu mamlakatlar tajribasini o'rganib, milliy sharoitga moslashtirmoqda. Masalan, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal" ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)) Estoniyaning X-Road tizimiga o'xshash integratsiya modeli asosida ishlayapti. Ayniqsa qishloq hududlarida internet infratuzilmasini kengaytirish va aholining raqamli savodxonligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayoni qonunchilik islohotlarisiz samara bermaydi. Shu maqsadda mamlakatimizda "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, raqamli davlatning huquqiy asoslari yaratildi. Shuningdek, davlat xizmatlarini raqamli ko'rinishda ko'rsatish uchun maxsus agentliklar va markazlar tashkil etildi. Axborot texnologiyalariga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ham yil sayin ortib bormoqda. 2023-yilda bu sohada investitsiyalar 2 milliard dollardan oshgani qayd etildi. Bu raqam raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotdagi ulushi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.<sup>41</sup> So'nggi tadqiqotlar aholining raqamli xizmatlardan qoniqish darajasi 80 foizdan oshganini ko'rsatmoqda. Eng katta talab pasport olish, kadastr xizmatlari va bank xizmatlariga bo'lgan. Tadbirkorlar esa onlayn litsenziya olish tizimini davlatdagi eng samarali islohotlardan biri sifatida e'tirof etmoqda. Raqamli davlat — bu faqat texnologiya emas, balki xalqqa xizmat qiladigan, ochiq va samarali boshqaruv tizimidir. O'zbekistonda bu jarayon qadam-baqadam amalga oshirilib, jahon tajribalari bilan uyg'unlashtirilmoqda. Eng asosiysi, raqamli davlat fuqarolar uchun qulaylik, davlat uchun samaradorlik, jamiyat uchun esa shaffoflik va ishonchni ta'minlaydi. Shu bois, yurtimizda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar nafaqat bugungi kun, balki ertangi avlodlar uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Davlat siyosati va boshqaruvining zamonaviy tendensiyalari — bu faqat texnologik yangiliklar emas. Bu — boshqaruv

<sup>41</sup> Yusupov S.B., Isayeva F.B. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022.-160 b.

falsafasi, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, fuqarolik huquqlari, global hamkorlik va milliy manfaatlar muvozanati haqidagi yangi tushunchalar. Agar davlatlar bu tendensiyalarni – raqamli transformatsiya, fuqarolik ishtiroki, shaffoflik va innovatsiyalarni — intellektual, ehtiyotkor va inkluziv yondashuv bilan amalga oshirsa, bu jamiyatlar barqaror, demokratik, samarali va odil bo'lishi mumkin. Aks holda — texnologik jihatdan rivojlangan, lekin adolatsiz va fuqarolar ishonchini yo'qotgan boshqaruvga duch kelish ehtimoli bor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5- oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi PF-6079-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
5. Yunusova M.S. Elektron hukumat va davlat boshqaruvini raqamlashtirish. Davlat boshqaruvi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent."Dimal" nashriyoti, 2025-y. 88 b.
6. Yusupov S.B., Isayeva F.B. Davlat xizmati. O'quv qo'llanma. – Toshkent. Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022.-160 b.
6. <https://president.uz/en/lists/view/3324>
7. Raqamli boshqaruv tamoyillari (Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tavsiyalar): <https://publicadministration.un.org>